

Tatil payti qishlog'imga borganimda adabiyotga qiziqib yuradigan bir necha hamqishlog'im mendan: "Sadafiy degan shoirmi taniysizmi?", - deb so'rashdi.

- U haqda bir-ikki eshitganman, darvish shoir, deyishadi. Lekin o'zini ko'rmaganman, kitobi ham menga uchramagan, - dedim.

- Nahotki?! U, axir, bizning viloyatdan, qo'shni tumandan ekan. Sherlari bilan aytiladigan qo'shiqlarni artistlar "Ey, Sadafiy deb tugatishadi-ku, - ajab-lanishdi hamqishloqlarim.

- Viloyat u yoqda tursin, tumanimizdan borib poytaxtda yashayotganlarning ko'pchiligini ham tanimayman. Toshkent katta shahar, undagi shoirlar soni Alisher Navoiy davridagi Hirot shoirlari sonidan kam emas, - dedim men sal balanddan kelib.

Hamqishloqlarim bilan bo'lgan adabiy suhbat, bu sohada ularni qiziqtiradigan boshqa mavzu bo'lmagani uchun, shu tarzda yakunlandi. Biroq shu suhbat sabab bo'lib, men qo'shiqchilik sanati va uning benazir imkoniyatlari haqida mulohazaga berildim.

Agar yetti yashar talantli bolakay oynai jahonda biron qo'shiqni qoyillatib aytolsa, butun elga taniladi. Kamida bir necha kun barchaning og'zida gap bo'ladi. O'ziningina emas, qo'shig'i matnini yozgan shoirmi ham elaro mashhur qiladi. Holbuki, bir necha kitobi chiqqan nosirni o'z mahalladoshlarining ko'pchiligi tuzuk-quruq tanimasligi, taniganlar ham, birona sherini mashhur xonandalar qo'shiq qilib kuylamagani uchun, katta ijodkor sifatida etirof etmasligi mumkin. Mana, hamqishloqlarim ham mendan: "Biron yangi narsangiz chiqdimi?", - deb so'rash o'rniga, Sadafiy tanish-tanimasligim bilan qiziqishdi. "Taniyman, o'zimizning ukaxonlardan, - deb bir oz yolg'onlaganimda, ular nazdida kaminaning maqomi bir pog'ona ko'tarilgan bo'lardi.

To'g'ri, shoir do'stlarim tasirida sherlar qoralaganman. Bir turkumi "Sohil ohanglari to'plamida chop ham etilgan. Biroq, afsuski, qo'shiq bo'larlik sherim yo'q. Boz ustiga, qo'shiqbop sher yozishning uddasidan chiqilganda ham, uni xonandalarga, ayniqsa, yiriklariga ijro ettirish mushkulligini yaxshi bilardim.

Mahallamizning mo'ljaz adabiy davrasi yoshullisi va adabiyotning tor ko'chalarida bizdan bir necha poyafzalni ko'proq to'zitgan shoir akaxonimiz qo'shiqbop sherlar yoza olar, ular unda-bunda maydaroq xonandalar tomonidan kuylangan ham edi.

- Falonchini zo'r shoir deysizmi? Aslida unchalik emas, - derdi odatda akaxonimiz biron nomi chiqqan shoir haqida gap ketganda.

- Gap shundaki, uning sherlarini katta artistlar qo'shiq qilib aytishgan. Bu jihatdan uning omadi chopgan. Lekin sherlarini taqqoslasangiz, baribir, meniki kuchli! Faqat hozircha biron nomdor artist bilan tanisholmayapman-da.

Nihoyat, akaxon adabiyotning keng va yorug' maydoniga chiqish, yani nomi va sherini katta sahnalarda jaranglatish uchun g'oyatda mashhur xonandaga mo'ljallab, maxsus qo'shiq matnini yozdi. Xonanda tilidan elga lirik murojaat tarzida yozilgan sherga: "Men sening yulduz qizingman, xalqim, degan sarlavha qo'yilgan edi. Uni dastavval bizga o'qib berdi.

- E, qalamingizga tasanno, shedevr-ku bu! - dedi mahallamizning peshqadam shoiri Abduhamid Parda. - Xudo xohlasa, Yulduzning repertuaridan aslo tushmaydigan qo'shiq bo'ladi.

Garchand, Pardaning mubolag'aga moyilligi bizga sir bo'lmasa-da, etirof etish lozimki, sher yurakdan yozilgan edi. Agar xonanda ham uni yurakdan qo'shiq qilib kuylasa, xalq qabul qilishi tayin edi. Bundan so'ng turnaqator bo'lib keladigan yutuqlarni tasavvur qilavering. Albatta, xonanda yangi sherlarga buyurtma berish asnosida bu sherning qalam haqini jo'natadi. Boshqa sanatkorlardan ham qo'shiqbop sherlarga buyurtmalar yog'iladi... Xullas, shoir akamiz nashriyotda uzoq yillardan beri navbatda turgan, hali yorug'lik ko'rmasdanoq bir muchalini o'tkazgan to'plami nashr etilishi, shoirlik shuhrati mahallamizdan tashqariga ham yoyilishi, turg'unlikka yuz tutgan moddiy ahvoli yaxshilanishi - barchasini shu qo'shiq ijobiy tarzda hal qilishidan umidvor edi.

Sherni xonandaga yetkazishning eng oson yo'li topildi. Akamiz xonandaning kontsertiga tushib, sher ko'chirilgan qog'ozni guldasta orasiga joylab, o'z qo'li bilan taqdim etdi. Keyin sabr bilan kutdi. Xonandaning radiodagi chiqishlarini muntazam eshitar, lekin oylar o'tsa-da, u intizor kutayotgan qo'shiqdan darak yo'q edi. Xonandaga qo'ng'iroq qilib so'rashga g'ururi yo'l bermasdi. Bizga noliganda qo'ldan kelgancha tasalli berdik: "Sheringizni kelasi yil boshidagi yangi kontserti uchun olib qo'yg'an bo'lsa kerak. Har bir katta kontsertida muxlislari uchun bir necha yangi qo'shiq hadya etishi lozim-ku. Kelasi kontserti boshida sizning sheringizni kuylasa ajab emas. Hatto yubiley kontsertini boshlash uchun ham bundan yaxshiroq qo'shiq topish amrimahol. Zoriqib kutilgan kontsertga akamiz oilasi bilan birinchi kuniyoq tushdi. Chipta qimmatligi bois, biz sher qo'shiq qiliganiga ishonch hosil qilgandan so'ng tushadigan bo'ldik. Biroq ertasiga akamizni tushkun holatda ko'rdik. Xonanda uning sherini na kontsert boshida va na oxirida kuylabdi. Biz ham taajjublandik. Chunki sherda hech qanday nuqson yo'q edi. Unda qaerda kamchilikka yo'l qo'yildi ekan?

- O'tgan yili sherni xonandaning o'z qo'liga tutqazganmidingiz? - so'radim men.

- Qo'liga tutqazganim yo'g'u, guldasta orasiga solib, ko'zga tashlanadigan qilib beruvdim, - dedi akamiz.

- Eh, ishni xom qilibsiz-ku, - dedi jig'ibiyron bo'lib Abduhamid Parda. - Axir, u "ichiga nima solingan deb barcha guldastalarni birma-bir titib chiqarmidi?! Sherni chiroyli xatjildga solib, guldastadan alohida qo'liga berib: "Yulduzxon, shuni qo'shiq qilsangiz, maxsus siz uchun yozilgan, - desangiz bo'lardi-ku!

- Ha, shunday qilish kerak edi, - deya tasdiqladim men ham. - U sheringizni ko'rmagan bo'lishi mumkin. Esiz, bir yil vaqt! - Xayrli ishning kechi yo'q. Yulduzning kontserti o'n kun davom etadi. Yana bitta chiptaga va bir guldastaga tushsangiz nima qipti?! - dedi Parda va o'z tajribasi bilan o'rtoqlashdi. - Men Norali To'raevga bag'ishlab yozgan dostonimni naq uning hovlisiga eltganman. O'zi yo'q ekan-u, lekin qorovulga: "O'z qo'liga berasiz, - deb tayinladim. Bunga ham uch-to'rt oy bo'ldi. Negadir, Norali hanuz qo'ng'iroq qilmayapti. Nihoyatda band odam-da! O'zim bir o'tib xabar olishim kerak.

Shoir akamiz maslahatimizga amal qildi. "Yiqilgan kurashga to'yimas deganlaridek, qo'shiq matni bilan xonandani o'ngu so'ldan qamal qilishni boshladi. Xonanda viloyatlarga gastrolog chiqqanda, akamiz qaysidir viloyatdagi qarindoshiga "kontsertiga tushib, qo'liga bergin, deb sheridan nusxa jo'natdi. Qo'ng'iroq qilib natijani so'raganida, "o'z qo'lim bilan o'z qo'liga berdim, - degan ijobiy javobni eshitdi.

Shu orada qo'shiq matnini xonandaga yana bir bor yetkazish uchun zo'r imkoniyat paydo bo'ldi. Radiodan muayyan kunda o'sha xonanda bilan suhbat bo'lishi xabari berilib, savol va xatlaringizni kutamiz, deyishdi. Akamiz sherga ajoyib bir xat ilova qilib, radioga o'zi eltib berdi. Eshittirishni butun vujud quloqqa aylanib tingladi. Suxandon qizga rahmat! "Sizga xat yo'llaganlar orasida taniqli ijodkorlar ham bor, - deb akamizning ismi sharifini aytibdi. So'ngra: "U kishi siz qo'shiq qilishingiz uchun bir sher yozibdi, bir bandini o'qib beraman, - deb chiroyli ovoza o'qibdi.

- Sher yoqdimi, qo'shiq qilasizmi? - deb xonandaga murojaat qilibdi.

- Juda yoqdi, shoir akamga rahmat! - degan javobni eshitganda akamizning ko'zidan yosh chiqib ketibdi. Lekin xonandasi tushmagur sherni qo'shiq qilish yoki qilmasligi haqida tayinli gap aytmabdi.

Oradan yil o'tib, navbatdagi kontsertda ham biz kutgan mo'ljaza ro'y bermagach, qanchalik noqulay bo'lmasin, "balki sher matnini biroq o'zgartirib, boshqa biron xonandaga berib ko'rish kerakdir, - degan mulohaza ham aytili. Biroq akamiz keskin rad

qildi.

- Yo'q, bu sher atay uning o'zi uchun yozilgan. Boshqasiga bersam, uvol bo'ladi. Hech kim buni uning o'zichalik aytolmaydi! Men hali aytmaydan oldinoq bu qo'shiqni uning ijrosida eshitdim. (Biz angrayib, akamizga tikildik). Bir kuni deng, ertalab hali o'rnimda yotganimda shu qo'shiq tarala boshladi. Radiodanmi, televizordanmi - bilolmayman. Shunaqa mayin, dilrabo! Xotinim: "Turing, dadasi, ishga kechikasiz, - deb beliga tepdi qo'shiqning. Turiboq: "Nega radioni o'chirding, yoq! - deb baqiribman. Attang, tushim ekan. Biroq shunchalik aniq-tiniq eshitdimki, bastakor bo'lganimda, darhol ohangini notaga tushirardim. Hay mayli, u katta kompozitorlar bilan ishlaydi-ku. O'sha ohangni albatta topishadi...

Qishloqdan Toshkentga qaytib kelgach, yoz oqshomlaridan birida do'stim - bolalar shoiri, shuningdek, kattalar uchun ham yozadigan Dilshod Rajab bilan Chilonzor xiyobonlaridan birida sayr qilayotib, kabobxo'rlik qilish uchun ochiq havoda - favvora teg-rasida turgan stollardan biri atrofiga o'tirdik. Nariroqdagi stoldan qo'zg'algan juftlik Dilshodga tanish ekan. U borib ko'rishdi.

- Bu odamni taniysizmi? - so'radi Dilshod qaytib kelib o'tirgach.

- Yo'q, birinchi ko'rishim, - dedim.

- Qo'shiqchi shoir Sadafiy shu bo'ladi. Yonidagi ayol xotini.

- E, shunday deng! Nihoyat, hamqishloqlarimga shoir Sadafiyi ko'rganman, deb baralla ayta olaman. Lekin uni darvish qiyofasida tasavvur qilardim. Bu esa po'rim kiyingan viqorli bir odam. O'zi, Sadafiy taxallusli shoir bittami?

- Ha, shoir Sadafiy shu. Chindanam bor-yo'g'i bir necha yil oldin u haqiqiy darvish edi. Qo'shiqchi shoir sifatida tanilgani bilan na tayinli ishi, na uy-joyi bor va na kitoblari chiqqan edi. Xotini tufayli qaddini tiklab, darvishdan bekka aylandi.

- Demak, yaxshi ayolni topib uylanibdi.

- U ayolni emas, ayol uni topgan. Ularning romani menga yaxshi malum.

- Unda hikoya qilib bering. Kabob yeb eshitadigan go'zal qissaga o'xshaydi-ku.

- Sadafiy ham bir necha sheri qo'shiq qilinib, elga manzur bo'lgach, poytaxtga omad izlab kelganlardan. Lekin uning istedodiga gap yo'q, - deya hikoyasini boshladi Dilshod. - Men uning bir turkum sherlarini o'zim ishlaydigan gazetada chop ettirganman va shu tufayli yaqin tanish bo'lib qolganmiz. Boshidan kechirganlarini ham o'zidan eshitganman. Toshkentga kelganida turadigan joyi bo'lmagan. Istedodini qadrlaydigan bazi artistlar vaqtinchalik o'z uylariga ro'yxatga qo'yib, muvaqqat boshpanalar topib berishgan. Sadafiy qo'shiq qilingan sherlari evaziga berilgan qalam haqiga tirikchilik qilgan. Bilasiz, shoir xalqi injiq, o'z homiylari bilan ham kelishib yashashi qiyin. Sadafiy ham mashhur bir xonanda bilan arazlashib, eshikni qarsillatib yopib, ko'chaga chiqib ketgan. Orttirganini icha boshlagan. Ko'cha-ko'yda mast-alast daydib yurgan. To taqdirida bugun ko'rganingiz ayol paydo bo'lgunicha, u nainki darvish, hatto daydi edi.

- Xotini ham o'z tarafidanmi?

- Yo'q, u farg'onalik. Shuhrat borasida qo'shiqchi shoirlar bilan bellashib bo'lmasligini yaxshi bilasiz. Siz kabi kitobxonlikka mukkasidan ketganlar shoirlarni kitoblari orqali taniydi, asarlariga qarab baholaydi. Lekin hozir sizdaylar kamayib ketgan. El shoirlarni avvalo qo'shiq qilingan sher-lari orqali taniydi va shunga qarab ardoqlaydi. Shu sababli Sadafiyning tarifini bu ayol Farg'onada turiboq eshitgan. Toshkentga kelib ishlab ketgan biron qo'shiqsevar mardikor aytganmi yoki boshqami, shoirning qay ahvolga tushib qolganidan ham voqif bo'lgan.

Bu ayol adabiyotga, ijodkorlar hayotiga oldindan qiziqar ekan. "Toshkentga borib, uni izlab topaman, odam qilib yo'lga solaman, istedodi xor bo'lishiga yo'l qo'ymayman! - deya ahd qilib, shu maqsadda poytaxtga yo'l olgan.

- Alpomish Barchinni izlab emas, Barchin chohda yotgan Alpomishni xalos qilish uchun o'tlanibdi-da! Yo'lga solib, odam qilaman desa, vodiyda shunaqasi topilmabdimi? Nega endi dovon oshib, aynan Sadafiyi izlab kelibdi?

- Bu ko'ngil ishi-da, aka! Sizingcha bo'lsa, Barchin ham qalmoqqa yoki Ultontozga tegib ketaversa bo'lardi-ku! Asli sheriya shaydosi bo'lgan bu ayolni Sadafiyning sherlari maftun etgan.

Xullas, ayol Toshkentga kelib, tahririyatu radiodagi ijodkorlardan shoirmi so'rab-surishtirgan. Bilganlar: "Sadafiyi katta bozorlardagi aravakashlar yo mardikorlar orasidan topasiz, - deyishgan. Chunki so'nggi paytlarda shoirning hayot tarzi shundoq bo'lgan: u biron aravakashning ismini so'rab, uning ismiga qofiya qilib baytlar aytgan. Ismi sherga solinganidan xursand bo'lgan aravakashlar ko'ngildan chiqarib, bir oz pul berishgan. Kun davomida yig'ilgan pulga shoir aroq ichgan.

Ayol ham uni mardikorlarga sherxonlik qilib turganida topib olgan va u bilan ko'rishish uchun olisidan kelganini ro'yi rost aytgan. Hayron qolgan Sadafiy, bafurja suhbatlashaylik, deya qahvaxonaga taklif qilgan va shunday dilbar ayol atay uni deya uzoq yo'l bosib kelganidan qattiq tasirlanib, aroq buyurgan. Ayolning ilk bor shoirmi ichkilikdan qaytarish uchun qilgan harakatlari natija bermagan. Bu ahvolda endi nozik mavzularda gaplashish imkonsizligi tufayli, ular ertalab soat sakkizda uchrashishga kelishishgan. Chunki Sadafiyning ertalab ichish odati yo'q edi. Aksiga olib, ertalab mardikorlarni melisa bosib, ular yonida bo'lgan Sadafiyi ham "Men shoirman deganiga qaramay, poytaxtda ro'yxatda turgan-turmaganliklarini tekshirish uchun tayanch punktiga olib borishgan. Bu yerda ham u shoirlar davosidan voz kechmagan va: "Falon xalq artis-ting uyida vaqtinchalik ro'yxatda turaman, - degan. Melisa boshlig'i o'sha manzilga qo'ng'iroq qilsa, go'shakni xotini ko'targan va: "Agar qo'lida M.S. degan yozuvi bo'lsa, o'sha shoir biznikida turadi, - degan. Tatuirovkani ko'rgan boshliq uzr so'rab, uni ozod qilgan. Lekin Sadafiy: "Meni bu yerga majburan olib kelishdi. Soat sakkizda juda muhim uchrashuvim bor edi. Undan bir soat o'tib ketdi. Meni mashinada olib borib qo'yasizlar! - deb xarxasha qilgan. Melisa boshlig'i noiloj o'z cho'ntagidan taksi puli bergan. Pul qo'lga tekkach, Sadafiy ko'chaga chiqib, bu voqea alamidan aroq ichib: "Baribir kechikdim, uchrashuv barbod bo'ldi. Endi mendan arazlab, hech qachon kelmaydi, - deb ko'z yoshi ham qilgan.

Ayol esa uni ertalabki sakkizdan kechki sakkizgacha kutgani yetmagandek, ertasiga ham izlagan. Qayta topgach, o'zi turmush qurishni taklif qilgan. Turmush qurishgach, Sadafiyi ichkilikdan qaytarib, yo'lga sola boshlagan. Bu jonfidolikning qanchaga tushgani bir o'ziga, bir Xudoga ayon. Mana, endi ularning poytaxtda o'z uylari bor. Sadafiyning to'plamlari oldiniga yupqa, katta kitobi esa qalin muqovada nashr etildi. Kelasi hafta Sanat saroyida uning adabiy kechasi va kitobining taqdimoti bo'lar ekan.

- Ayol zotiga qoyil-a! - dedim eshitganlarimdan mutaassir bo'lib, - Xudo ko'ngliga solgan ekan-da. Bo'lmasa, oldin ko'rmagan-bilmagan odamini izlab uzoq yo'l bosish, topgan zahoti sinamasdan tegib olish, so'ngra uni yo'lga solib, darvishlikdan bekkikka ko'tarish - o'zi bo'ladigan ish emas, albatta.

- Ayniqsa, Sadafiydek injiq shoirmi er qilish oson bo'lmasa kerak. Bu ayol esa uni ham er, ham sher qildi. Mana shu matonati evaziga o'zi ham mashhur shoirning xotini bo'lib, gul-gul ochilib yuribdi, - deya hikoyasini yakunladi Dilshod Rajab.

"Yoshlik jurnalining 2010 yil, 3-sonidan olindi.

This is not registered version of TotalDocConverter